



Dilnoza USMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dilnozausmanova0702@gmail.com

Alfraganus universiteti professori, f.f.d. DSc M.Saparniyazova taqrizi asosida

DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF THE X-FEMISM PARADIGM

Annotation

This article is devoted to the concept of x-phemic units, which has been increasingly developing in modern linguistics. The study outlines key theoretical hypotheses that form the basis for examining their linguistic features, contextual usage, and functional roles in the speech process. A comprehensive analysis of the structural composition, semantic potential, and pragmatic impact of x-phemic units is provided, highlighting their place within the language system and their significance in intercultural communication.

Key words: X-phemic units, euphemism, dysphemism, semantics, pragmatics, context, discourse, intercultural communication.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПАРАДИГМЫ Х-ФЕМИЗМА

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие икс-фемических единиц, которое в современной лингвистике приобретает всё большую актуальность. Освещаются научные теоретические гипотезы, служащие основой для изучения их лингвистических особенностей, контекстуального употребления и функциональной роли в речевом процессе. Проводится углублённый анализ структурной организации, семантического потенциала и прагматического воздействия икс-фемических единиц, а также всесторонне раскрывается их место в языковой системе и значение в межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: Икс-фемические единицы, эвфемизм, дисфемизм, семантика, прагматика, контекст, дискурс, межкультурная коммуникация.

IKS-FEMIZM PARADIGMASINING FARQLOVCHI BELGILARI

Аннотация

Ushbu maqolada tilshunoslikda tobora rivojlanib borayotgan iks-femik birliklar tushunchasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning lingvistik xususiyatlari, kontekstual qo‘llanilishi va nutq jarayonidagi funksiyalarini o‘rganish uchun asos bo‘luvchi ilmiy nazariy gipotezalar sharxlangan. Iks-femik birliklarning tarkibiy tuzilishi, semantik imkoniyatlari va pragmatik xususiyatlarining tavsiflanib, ularning til tizimidagi o‘rni va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati atroflicha yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Iks-femik birliklar, evfemizm, disfemizm, semantika, pragmatika, kontekst, diskurs, madaniyatlararo muloqot.

Kirish. Til ijtimoiy ongning eng faol va murakkab ko‘rinishlaridan biri sifatida inson tafakkuri, madaniy tajribasi va qadriyatlar tizimini ifoda etadi. Har qanday til tizimi o‘zida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, gender rollari, madaniy normalari va axloqiy mezonlarini mujassamlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, tilni faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida o‘rganish zarurati tug‘iladi. Mazkur yondashuv diskurs tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Diskurs nazariy va amaliy jihatdan nafaqat tilshunos izlanuvchilar balki, psixologlar, falsafashunoslar, sotsiologlar, siyosatshunos olimlar tomonidan ham o‘rganiladi. Bugungi kunda diskursni ifodalash uchun yagona va umumiy qarashlarni ifodalovchi ilmiy qabul qilingan ta‘rif mavjud emas, ya‘ni turli olimlar diskurs tushunchasini turlicha talqin qilishadi. Til muloqot vositasi sifatida jamiyatning turli sohalarida keng foydalanilganligi bois, diskurs ham bir qancha turli jabhalarni qamrab oladi va ushbu jabhalarning har birida diskurs o‘zgacha xususiyatlarga ega bo‘ladi. Xususan badiiy diskursda uchraydigan o‘ziga xos birliklarni ilmiy tadqiq etish badiiy matnlarni boshqa matn turlarida uchramaydigan jihatlari bilan farqlanishi sababli biroz murakkab. Ushbu maqolada tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq iks-femik birliklarning diskursiv yondashuv asosida o‘rganilish tarixi, uning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iks-femik birliklar ilmiy tadqiqotlar obyekt sifatida antik davrlardan boshlab diqqat markazida bo‘lgan, ammo ularning lingvopragmatik tahlili va kontekstual farqlanishi keyingi davrlarda, ayniqsa, XX asrning 60-80-yillaridan boshlab chuqur o‘rganila boshlangan [8]. Ushbu davrda, tilshunoslikda pragmatik burilish yuz berishi bilan, evfemizmlar nafaqat lug‘at boyligi, balki ijtimoiy-madaniy kontekstga bog‘liq nutqiy hodisa sifatida ko‘rib chiqila boshlandi, bu esa ularning tildagi funksional yuklamasini tushunishga imkon berdi [10, 10-bet]. Iks-femik birliklarni diskursiv yondashuv asosida o‘rganishdan oldin diskursning o‘ziga berilgan ta‘riflarni ko‘rib chiqish lozim. Jumladan, N. D. Arutyunova diskursni ta‘riflar ekan, diskurs bu “nutq va matnning real hayotiy kontekstdagi qo‘llanish shakli” deya ta‘kidlaydi [1]. Bu bilan olim nutq faoliyatining ijtimoiy va madaniy jihatlariga urg‘u beradi. T. A. van Deyk esa diskursni “matn, nutq, bilim va kommunikativ faoliyatning murakkab birligi” sifatida belgilaydi [9]. Uning fikricha, diskursni tahlil qilishda lisoniy birliklar, ijtimoiy vaziyat va kognitiv jarayonlar birgalikda o‘rganilishi kerak. Pragmalingvistik yondashuvlar asosida diskursni o‘rganan olimlar diskurs subyektivlik asosidagi shaxsiy nuqtayi nazar, nutq aktlaridan tashkil topgan va ularning maqsadi muloqotdan ko‘zlangan maqsadga erishish ekanligini ta‘kidlaydilar. Diskursni madaniy nuqtai nazardan o‘rganangan olimlar uni

“madaniyatdagi semiosfera, ya’ni belgilar tizimining faollashuv shakli” deb ta’riflaydilar hamda diskursni ijtimoiy-madaniy muloqot ko’rinishi sifatida turli xillarga ajratadilar. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib, badiiy diskurs bizning fikrimizcha, so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi ijtimoiy-madaniy jihatlarini qamrab olgan, kuchli estetik va emotsional ta’sirga ega bo’lgan matn-nutq birliklari shaklida namoyon etuvchi murakkab kommunikativ jarayon sifatida ko’rinadi. Ushbu nutqiy faoliyatda iks-femik birliklar nafaqat til vositalari, balki badiiy-estetik baholash vositalari sifatida ham ishlatiladi. Muhim jihati shundaki, iks-femik birliklar kontekst va stilistik uslubga qarab turli diskursiv jarayonlarda xilma-xil konnotativ xususiyatlarga ega bo’lib, bu ularni farqlashda qiyinchiliklar tug’diradi. Iks-femizmlarni o’rganishga bag’ishlangan ko’plab ishlar mavjud bo’lishiga qaramay, ularning funksional-semantik xususiyatlari, nutqda shakllanish sabablari hamda evfemizm va disfemizmlarga xos lingvistik belgilari to’liq o’rganilmaganligi sababli, tilshunoslikda ularga aniq ta’rif berilmagan. Iks-femik birliklar tilshunoslikda sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmatika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya singari fanlar kesishmasida o’rganiladi. Bir qator olimlarning nazariy yondashuvlariga ko’ra evfemizmlar trop sifatida ifodalansa (M.L.Kovshova, O.S.Axmanova, V.I.Zabotkina, N.M.Naer), ba’zi olimlar esa aksincha, ularni trop emas balki muloqotda yoqimsiz holatlarni oldini olish yoki qo’pol, insonlarda yomon fikr uyg’otuvchi tushunchalarni boshqa yumshoqroq shakllar orqali ifodalash vositasi deb hisoblaydilar (E.V.Shishova, V.P.Moskvin, A.D.Shmelev, R.Bachem, S.Kral) [2]. Disfemizmlar esa evfemizmlarga nisbatan kechroq o’rganila boshlagan. Ko’pchilik olimlar disfemizmlarga funksional jihatdan evfemizmlarning aksi sifatida qaraydilar, ya’ni bunday birliklar ataylab kommunikativ jarayonda tinglovchini obro’sizlantirish, unga ma’naviy zarar yetkazish nutqda salbiy bahoni kuchli ekspressivlik orqali ifodalash uchun qo’llaniladi (E.I.Sheygal, N.A.Rezanova, T.V.Matveeva, A.Karnua va boshqalar). Iks-femik birliklarni ta’riflashda aniq bir mezonning mavjud emasligiga ularning klassifikatsiyasiga oid ilmiy izlanishlarni ham murakkablashtiradi, chunki ular nutqiy jarayonlarning ekspressiv turlarini farqlashda va ularning diskursdagi modifikatsiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi [11]. L.P.Krisin A.M.Katsev, B.A.Larin, V.P.Moskvin, E.Partridge, A.J.Omonturdiyev kabi olimlar tomonidan iks-femik birliklarning tematik klassifikatsiyasi, Y.P. Senichkina tomonidan ularning morfologik klassifikatsiyasi, M.L.Kovshova B.A.Larin, V.P.Moskvin va boshqalar tomonidan iks-femizmlarning funksional klassifikatsiyasi, A.M.Katsev, V.P.Moskvin, B.Warren, A.J.Omonturdiyev kabi olimlar tomonidan iks-femik birliklarning shakllanish usullari o’rganib chiqilgan. Iks-femik birliklarni diskursiv izlanishlar doirasida tahlili I.E.Sheygal, O.V.Krasikova, lingvokulturologik hodisalardan biri sifatida esa G.M.Alimjanova kabi olimlarning ilmiy ishlarida o’z aksini topadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda iks-femik birliklarga lingvistik ta’rif berish uchun lingvopragmatika va kommunikativ lingvistika, stilistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, chog’ishtirma tilshunoslikda funksional-strukturaviy yo’nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o’rganib chiqildi va iks-femizmlarni ilmiy tahlilga tortish uchun nazariy-metodologik mezonlari ko’rib chiqildi. Xususan, ushbu metodlar orqali evfemizmlar va disfemizmlarning nutqdagi funksional-semantik xususiyatlari, ularning kommunikativ jarayonda qo’llanilish motivlari, lingvomadaniy ahamiyati ta’kidlab o’tildi.

Tahlil va natijalar. T.A.Fomina va A.S.Drujinin ta’kidlaganidek, evfemizm va disfemizm o’rtasidagi qat’iy

chegara amalda yo’q — u kontekstual o’zgaruvchanlik tufayli doimiy ravishda o’zgarib turadi. Shu sababli, har qanday iks-femik birlikni “evfemizm” yoki “disfemizm” deb aniq belgilash faqat alohida nutqiy holat, matn yoki diskurs doirasida mumkin. Natijada, iks-femizm tildagi semantik, emotsional va kognitiv darajalarning kesishgan nuqtasi sifatida namoyon bo’ladi [6]. U inson tafakkuri, hissiyotlari va nutqiy xatti-harakatlari o’rtasidagi uzluksiz o’zaro ta’sirni ifodalovchi lisoniy hodisadir. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, evfemizatsiya va disfemizatsiya — bu har biri ma’lum vaziyatda vujudga keladigan, sharoitga bog’liq bo’lgan semiotik jarayon bo’lib, u evristik xarakterga ega, ya’ni ma’no yaratishning ijodiy va kontekstga xos shaklidir. Mazkur jarayon natijasida iks-femizm paydo bo’ladi — u affektiv semantikaning dinamik birligi sifatida tavsiflanadi. Iks-femizm o’z mohiyatiga ko’ra aniq baholovchi belgiga ega emas, chunki unda ijobiy va salbiy qiymatlar o’rtasidagi chegaralar noaniq. Uning semantik statusi kontekstda aniqlanadi va muloqot jarayonidagi ijtimoiy-emotsional holatlarga qarab o’zgaradi. Shu bois iks-femizm — bu baholovchi semantikaning harakatdagi shakli, unda ma’no har safar yangidan tashkil topadi.

Empirik darajada iks-femizm insonning kommunikativ o’zaro ta’sir dinamikasidagi individual tajribasini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Boshqacha aytganda, shaxs muayyan nutqiy holatda evfemik yoki disfemik ifodalar orqali obyektga nisbatan o’z munosabatini o’zgartiradi, va bu munosabat kontekst o’zgarishi bilan birga qayta shakllanadi.

Tekstologik darajada esa iks-femik birliklar kontekstual jihatdan ambivalent, ya’ni ikki yoqlama semantik imkoniyatga ega til birliklari sifatida qaraladi. Ularning mohiyatini izohlovchi nazariya relyatsion mantiq (ya’ni o’zaro nisbiylik asosidagi mantiq) va dialektik variatsiya tamoyili asosida qurilishi lozim. Bu esa iks-femizmi kontekstda harakatlanadigan, o’zgaruvchan, ijtimoiy va hissiy omillarga tayanadigan semantik birlik sifatida ko’rsatadi.

Koreyalik tadqiqotchilar Chang Kang Byung va An Hyukning ta’kidlashicha, evfemizmlar jamiyatda nojo’ya yoki noqulay ma’lumotlarni yashirish va yumshatish vazifasini bajaradi. Ular jamiyatda ochiqchasiga muhokama etilishi nomaqbul bo’lgan mavzularni (masalan, o’lim, jinsiy munosabat, kasallik, jinoyat hodisa va h.k.) madaniy jihatdan maqbul shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shu yo’l bilan evfemizmlar muloqot ishtirokchilari o’rtasida psixologik himoya va hissiy muvozanatni ta’minlaydi hamda adresatning his-tuyg’ulariga nisbatan hurmat va ehtiyoqkorlik ifodalaydi [7]. Bu yondashuv evfemizmi faqat lingvistik emas, balki sotsiopragsmatik hodisa sifatida talqin qiladi.

L.V. Kvaskova fikricha, disfemizatsiya har doim ham destruktiv bo’larmaydi — u diskursiv harakatlantiruvchi kuch ham bo’lishi mumkin. Badiiy diskursda u drammatizm, ziddiyat va xarakter psixologiyasini chuqurlashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi. Ammo kommunikativ kontekstdan tashqarida, ya’ni ijtimoiy yoki siyosiy muloqotda, disfemizm odatda etik me’yorlarning buzilishi sifatida baholanadi.

Til hodisalarining, xususan, evfemizm, disfemizm va ularning umumiy kategoriyasi bo’lgan iks-femizmi milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash uchun chog’ishtirma tahlil muhim ilmiy metodlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchi E.M.Zharova o’zining “Comparative Analysis of the Approaches to Euphemisms’ Research (based on Korean and Turkish)” nomli ilmiy ishida evfemizm hodisasini koreys va turk tillari misolida chog’ishtirma tahlil qiladi. Muallif fikriga ko’ra, bu tillarda evfemizmlarning ishlatilishi nafaqat til tizimi bilan, balki xalqning madaniy qadriyatlarini, tarixiy rivojlanish jarayoni va milliy tafakkur xususiyatlarini bilan bevosita bog’liqdir [12].

Tadqiqotda evfemizm hodisasi madaniy-tarixiy kontekstda izohlanadi: koreys tilidagi evfemik ifodalar ko'proq konfutsiylik qadriyatlariga, ijtimoiy iyerarxiya va "hurmat" prinsipiga, turk tilidagi evfemizmlar esa islomiy odob, mehmondo'stlik, axloqiy sadoqat kabi qadriyatlarga asoslanadi.

Shuningdek, T. R. Pisarskaya va N. E. Yakimenko o'z tadqiqotlarida rus va ispan tillarida qo'llaniladigan evfemik birliklarni lingvokulturologik va semantik jihatdan chog'ishtirgan. Ularning tahliliga ko'ra, har ikkala tilda evfemizmlar bir xil tematik guruhlariga bo'lingan bo'lsa-da, bu guruhlarining obrazlilik, komponent tarkibi va baholovchi konnotatsiyasi turlicha ifodalanadi [4]. Pisarskaya va Yakimenkoning tadqiqoti evfemizmlarni faqat semantik yoki stilistik birlik sifatida emas, balki madaniy kod va ijtimoiy mentalitet ifodasi sifatida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv chog'ishtirma lingvokulturologiya doirasida evfemizmlarni millatlararo tafakkur va etik qadriyatlarni solishtirish vositasi sifatida o'rganish imkonini beradi. Evfemik birliklarning chog'ishtirma tahlili turli tillarda tabiiylik, etik me'yor, madaniy qadriyat va hissiy ekspressivlik qanday ifodalanishini ochib beradi. Har bir tilda evfemizatsiya jarayoni o'ziga xos milliy-madaniy tafakkur modeli asosida kechadi va shu bilan birga tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda pragmatik lingvistika uchun muhim nazariy asos yaratadi.

E. A. Sattarova o'z tadqiqotida rus va o'zbek tillarida evfemizmlarning madaniy va kommunikativ funksiyalarini tahlil qilgan holda, ularning lingvokulturologik farqlari va o'zaro mos kelmaslik holatlarini aniqlaydi. Muallifning fikricha, evfemizm – bu nutqdagi odob va ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga xizmat qiluvchi muhim til hodisasi bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqotda yumshoqlik, xushmuomalalik, madaniylik va ijobiy hissiy muhitni ta'minlaydi [5, 248-bet].

Demak, iks-femik birliklar – bu tilning hissiy va baholovchi imkoniyatlarini ishga soluvchi lisoniy mexanizm bo'lib, ular kommunikativ vaziyatda ikki qutbni tashkil etadi:

1) biri – yumshoqlik, odob, estetik muvozanat (evfemizm),

2) ikkinchisi – kuch, tanqid, ironik keskinlik (disfemizm).

Bu ikki qutb o'rtasidagi o'zaro munosabat kommunikativ jarayonga dinamika va hayotiylik baxsh etadi. U orqali matnning estetik qatlamida axloq, hissiyot va ijtimoiy qadriyatlar bir butun tizim sifatida mujassam bo'ladi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar natijasida shunday xulosa qilish mumkin: iks-femizm – bu o'ziga xos semantik o'zgaruvchi (semantik o'zgaruvchan birlik) bo'lib, uning baholovchi (ijobiy, salbiy yoki neytral) statusi doimiy emas, balki aniq bir kontekstda, ya'ni konkret nutqiy vaziyatda aniqlanadi. Boshqacha aytganda, iks-femik birliklarning semantik qiymatini faqat mazkur kontekst, kommunikativ niyat va ishtirokchilarning emotsional holati bilan bog'liq holda belgilash mumkin. Shu bois iks-femizm statik til hodisasi emas, balki dinamik semantik jarayon sifatida talqin etiladi.

Evfemizmding yana bir muhim jihati – uning baholovchi konnotatsiyasidir. Tadqiqotchilar qayd etganidek, evfemik birliklar odatda ijobiy yoki neytral semantik ohangga ega bo'ladi, bu esa ularni lisoniy tushunchalarni bevosita nomlashdan farqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, evfemizatsiya jarayoni tilning deyarli barcha stilistik darajalarida sodir bo'ladi: so'zlashuv nutqidan tortib rasmiy, siyosiy yoki badiiy nutqgacha.

Xulosa va takliflar. Ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, iks-femik birliklar estetik-emotsional ta'sirni boshqaradigan, axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi va madaniy kodlarni o'zida mujassam etuvchi lingvistik mexanizmdir. Ularning qiymati kontekstda shakllanishi, relyatsion tabiati hamda chog'ishtirma tadqiqotlarda namoyon bo'luvchi milliy-madaniy farqlari ushbu hodisaning ko'p qirrali va dinamik mohiyatini yaqqol isbotlaydi. Shu bois ushbu sohada kelgusi tadqiqotlar iks-femizmlarni faqatgina lingvistik tabiatini emas, ularning lingvomadaniy, kognitiv va sotsial-psixologik xususiyatlarini ham o'rganishga yo'naltirilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Советская энциклопедия, 1990.
2. Белова О. В. Эвфемизмы и дисфемизмы в публицистическом дискурсе (на материале немецкоязычных статей, посвящённых теме коронавируса) : выпускная квалификационная работа. — Екатеринбург, 2023.
3. Кваскова Л. В. Дисфемизация речи как коммуникативная тактика в дискурсе // Фундаментальная наука вузам. — 2016. — № 3. — С. 352–357.
4. Писарская Т. Р., Якименко Н.Е. Эвфемизмы русского и испанского языков как составляющая лингвистической компетенции переводчика // Ученые записки. Теория и методика профессионального образования. — 2016. № 4 (56).
5. Саттарова Е. А. Несовместимость эвфемизмов русского и узбекского языков как основное препятствие для лингвокультурологического сопоставления // Молодой учёный. — 2020. — № 50 (316). — С. 246–249.
6. Фомина Т. А., Дружинин А. С. Контекстуально обусловленное номинативное варьирование на оси эвфемия/дисфемия // Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. — 2023. — Т. 20, № 1. — С. 137–155. — DOI: 10.21638/spbu09.2023.108.
7. Chang Kang Byung, An Hyuk. Eufemistik tilga e'tibor qaratish // Retorika tadqiqotlari. — Seul: Koreya Retorika Jamiyati, 2013. — № 18.
8. Jo'raxonova S., Jo'raxonova A. Urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabiiylik va evfemizmlar // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2022. — Vol. 2, № 3. — ISSN 2181-1784.
9. Van Dijk T. A. Handbook of discourse analysis. — London: Academic Press, 1985. — Vol. 1. — P. 3–10.
10. Yusupova D. Y. Euphemism is a mental find (on the example of the poetry of Halima Khudoiberdiyeva) // Current Research Journal of Philological Sciences. — 2022. — Vol. 3, № 1. — P. 9. — DOI: 10.37547/philological-crjps-03-01-03.
11. Zhabotynska S., Slyvka N. Emotive speech acts and their discourse modifications in the literary text // Discourse and Interaction. — 2020. — Vol. 13, № 1. — P. 113– DOI: 10.5817/di2020-1-113.
12. Zharova E. M. Comparative analysis of the approaches to euphemisms' research (based on Korean and Turkish) // Вестник Московского государственного лингвистического университета. — 2021. — № 2 (837). — С. 45–52.
13. Kadirova X. B. (2025). Evfemizm va disfemizm mavzusidagi izlanishlar borasidagi ayrim nuqtai nazarlar. Hamkor Konferensiyalar, 1(15), 11–15. Retrieved from <https://academicbook.com/index.php/konferensiya/article/view/2239>
14. Kadirova X. Turli tizimdagi tillarning iks-femalar qiyosi va tarjimasini belgilovchi omillar // News of the NUUZ. — 2024. — Т. 1. — № 1.5. 1. — С. 284-287.